
MAHALLALARDA IFTORLIK TADBIRLARI BO'LIB O'TMOQDA

Toshloq tumanida Ramazon oyi munosabati bilan "Mahalla" hayriya jamoat fondi hamda Mahalla va Nuroniylarni qullab-quvvatlash bo'limi bilan hamkorlikda tumandagi mahalla fuqarolar yig'inlarida kam ta'minlangan, ehtiyojmand, nogironligi bor hamda nuroniy otaxon va onaxonlar uchun iftorlik dasturxonlari yozilmoqda.

Kuni-kecha ana shunday xayrli tadbirlar tumandagi "Turvat" hamda "Shodlik" mahalla fuqarolar yig'inlarida istiqomat qilayotgan aholi vakillari uchun tashkil etildi. To'kin dasturxon atrofida yig'ilganlar yurtimizga tinchlik, qut-baraka, xalqimizga ahillik tilab duolar qildilar.

2023-04-12 10:47:18